



O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI MAQOLLARNING O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

Mukaramxodjayeva Taxmina Yusupovna

*Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili o'qitish metodikasi katta
o'qituvchisi*

Furqatova Madina Furqat qizi

*Samarqand davlat chet tillari instituti ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik
fakulteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqola o'zbek va ingliz tillariga oid maqollarni solishtirishga bag'ishlangan bo'lib, unda ikki tildagi maqollarning qurilishi, ma'no xususiyatlari, semantik tabiati hamda madaniy asoslari tadqiq etiladi. Shuningdek, ularning o'xshash va farqli jihatlari ham aniqlanadi. Ushbu tadqiqotning natijalari tilshunoslik, madaniyatlararo aloqa va tarjima nazariyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada tilshunoslik, madaniyatshunoslik va sotsiologiya kabi fanlar nuqtai nazaridan tahlil ishlari olib boriladi.

Kalit so'zlar: maqollar, qiyosiy tahlil, madaniy meros, qadriyatlar, metafora, madaniyatlararo kommunikatsiya.

Xalq og'zaki ijodining bebaho namunasi bo'lgan maqollar har bir millat uchun qadimiy xazinadir. Asrlar osha sayqallangan bu durdonalarda xalqning aql-zakovati, turmush saboqlari va axloqiy me'yorlari jamlangan. O'zbek va ingliz tillari turli madaniyatlar vakili bo'lgani bois, ularning maqollari solishtirish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Maqollarni qiyosiy taqqoslash orqali tillarning o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, madaniy qimmatliklarni anglash mumkin.

Maqollar turli fanlar, jumladan, folkloristika, tilshunoslik, madaniyatshunoslik hamda sotsiologiya kabi sohalarning diqqat markazida bo'lib, ular turli jihatlardan tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotda esa bir qator yo'nalishlar asos qilib olinadi. Xususan, folkloristika Alan Dyundes va Archer Teylor kabi olimlarning asarlarida o'z ifodasini topganidek, maqollarning paydo bo'lishi, tarixi va jamiyatdagi ahamiyatini o'rganishga yo'naltirilgan. Tilshunoslik esa Volfram Bublits va Nil Norrik kabi tadqiqotchilar tomonidan maqollarning tarkibiy tuzilishi, semantik xususiyatlari hamda nutqdagi vazifalarini tahlil etishga qaratilgan. Qiyosiy tilshunoslik yondashuvi orqali Dmitriy Dobrovolskiy va Wolfgang Mider kabi olimlar turli tillardagi maqollarning o'xshash va farqli jihatlarini tadqiq etadi. Madaniyatshunoslikda esa Geert Hofstede va Edvard T. Xoll nazariyalariga tayangan holda,



maqollarning madaniy qadriyatlarni aks ettirishdagi roli hamda madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Qiyosiy tahlil natijalari o'zbek va ingliz maqollarida tuli o'xshash va farqli jihatlar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, har ikkala tilda ham umuminsoniy qadriyatlarning aks etish hodisasi kuzatiladi. Jumladan, o'zbek tilidagi "Do'st og'ir kunda bilinadi" va ingliz tilidagi "A friend in need is a friend indeed" maqollari do'stlikning eng muhim jihatlaridan biri - qiyinchilikda yordam berish ekanligini ta'kidlaydi. Har ikki tilda ham ushbu fikr bir xilda ifodalangan. Ya'ni, haqiqiy do'st faqat yaxshi kunlarda emas, balki og'ir damlarda ham yoningizda bo'ladi. Do'stlikning qadri, sadoqat, hamdardlik kabi universal insoniy qadriyatlar aks etgan. "Yeti o'lchab, bir kes" hamda "Look before you leap" maqollarida esa har bir ishni boshlashdan oldin yaxshilab o'ylab ko'rish, shoshilmaslik kerakligi uqtiriladi. Har ikki tilda ham og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan shoshilinch qarorlardan saqlanishga chaqiriq bor. Aql bilan ish yuritish, ehtiyotkorlik, uzoqni ko'zlash kabi fazilatlarining qadrini ko'rsatadi.

Shu singari maqollarni har ikki tilda ham uchratish mumkin. Ushbu "Tomchi toshni teshar" va "Constant dripping wears the stone" maqollari sabr-toqat va qat'iyat bilan harakat qilish orqali har qanday qiyinchilikni yengish mumkinligini uqtiradi. Qattiq toshni ham muntazam tomchilar yemirishi kabi, kichik, ammo uzluksiz harakatlar katta natijalarga olib kelishi mumkin. Sabr-toqat, qat'iyatlilik, maqsadga intilish kabi fazilatlarining qadrini ko'rsatadi.

"Ko'r ko'rni topsa, kar karnayni topsa" va "Like attracts like" maqollari esa o'xshash xususiyatlarga ega bo'lgan odamlar bir-biriga tortilishi, hamfikrlar osonroq til topishishi haqida. Insonlarning o'ziga o'xshaganlar bilan birlashishga moyilligi, ijtimoiy dinamikaning asosiy qonuniyatlaridan biri ekanligi aks etgan. Shuningdek, "Oz bo'lsa ham, soz bo'lsin" hamda "Better a little than none" singari maqollar orqali hech narsadan ko'ra oz bo'lsa ham foydaliroq ekanligini uqtiradi. Agar imkoniyat bo'lsa, kamtarona bo'lsa ham, nimadir qilish kerak, degan ma'noni anglatadi. Qanoat, imkoniyatdan foydalanish, realistik yondashuv kabi fazilatlarining qadrini ko'rsatadi.

Tilimizda ko'p qo'llaniladigan "Qozon nimani topsa, cho'mich shuni chiqaradi" va ingliz tilidagi "As the call, so the echo" jumalari qanday muomala qilsang, shunday javob olishingni anglatadi. Yaxshi muomala yaxshi natijalarga, yomon muomala yomon oqibatlarga olib keladi.

Bundan tashqari, o'zbek tilidagi "Vaqt – oltin" va ingliz madaniyatida ko'p qo'llanuvchi "Time is money" maqollari bir-biriga juda o'xshashdir. Har ikki tilda ham ushbu maqollar vaqtning bebaho resurs ekanligini, undan unumli foydalanish kerakligini uqtiradi. Har ikki tilda ham vaqtning qadri pul bilan



tenglashtiriladi. Vaqtni qadrlash, rejalashtirish, samaradorlik kabi tushunchalar aks etgan. Yana bir keng tarqalgan naqlardan biri bo'lgan “Achchiq haqiqat shirin yolg'ondan yaxshiroq” va shunga teng keluvchi ingliz tilidagi “Better an ounce of prevention than a pound of cure” maqoli(proverb) muammoning oldini olish, kasallikni davolashdan ko'ra afzalroq ekanligini uqtiradi. Erta tashxis qo'yish va profilaktika har doim yaxshiroq natija beradi. Uzoqni ko'zlash, ehtiyotkorlik, mas'uliyat kabi fazilatlarining qadrini ko'rsatadi.

Shuningdek, “Kam-kam yegulik - qand, ko'p-ko'p yegulik – zahar” hamda “Enough is as good as a feast” singari jumlar orqali o'zbek va ingliz tillarida insonlarga har narsada me'yorga rioya qilish kerakligini uqtiradi. Haddan tashqari ko'p yeyish zararli bo'lgani kabi, boshqa narsalarda ham me'yorni bilish muhim. Me'yorni bilish, muvozanat, sog'lom turmush tarzi kabi tushunchalar aks etgan. Yana bir “Suv kelguncha, to'g'onni sozla” – “A stitch in time saves nine” maqollari muammo yuzaga kelishidan oldin uning oldini olish, choralar ko'rish zarurligini uqtiradi. O'z vaqtida qilingan kichik harakat katta muammoning oldini oladi. Ehtiyotkorlik, uzoqni ko'zlash, tadbirkorlik kabi fazilatlarining qadrini ko'rsatadi.

Ushbu tahlil turli madaniyatlarda yashaydigan odamlarning hayotning muhim qoidalari, qadriyatlari va me'yorlari borasida ko'p jihatdan o'xshash ekanligini ko'rsatadi. Maqollar xalq hikmatining timsoli sifatida ajdodlardan avlodlarga o'tib, insoniyatning qimmatli merosini yaratadi.

O'zbek maqollari Sharq madaniyati, o'zbek xalqining urf-odatlar va an'analari bilan chambarchas bog'liqdir. Misol uchun, "Olim bo'lsang - olamga nur sochursan" yoki "Mehmon otangdan ulug'" kabi maqollar fikrimizni tasdiqlaydi. Ingliz maqollarida esa aksincha, g'arbga xos individualizm, amaliylik (pragmatizm) va demokratiya kabi tamoyillar o'z ifodasini topgan.

Maqollarda qo'llaniladigan tabiat manzaralari ham bejiz emas. Ular geografik muhit va xalqning tabiat bilan aloqasini aks ettiradi. O'zbek maqollarida sahro, tog', o'simliklar va hayvonot olamiga oid tasvirlar ko'p uchraydi. Ingliz maqollarida esa dengiz, kemasozlik va qishloq xo'jaligi bilan bog'liq obrazlar ustunlik qiladi. Ba'zi maqollarda tarixiy voqealar yoki shaxslarga ishoralar bo'ladi. Bu maqolning mohiyatini to'liq anglash uchun xalq tarixini yaxshi bilish talab etiladi. Bunday maqollar, odatda, o'ziga xos madaniy zaminda yaratilgan bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek va ingliz maqollari insoniyatning umumiy tajribasini aks ettiruvchi o'xshashliklarga ega bo'lsa-da, har bir til o'z madaniy merosini namoyon etadi. Maqollarni solishtirib tahlil qilish orqali turli xalqlarning dunyoqarashini, qadriyatlarini va fikrlash tarzini chuqurroq tushunishimiz mumkin.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Norrick, N. R. (1985). How Proverbs Mean: Semantic Studies in English Proverbs. Mouton. P-39
2. Mukaramxodjayeva T.Y “Semantic relationships of phraseological units in English: polysemy and homonymy” So’z san’ati xalqaro jurnali, 7 jild 2 son, Toshkent, 2024
3. Mukaramxodjayeva T.Y “Interactive methods of teaching language” Международный научный журнал № 8(100), часть 3 «Научный импульс» Март, 2023.
4. Taylor, A. (1985). The Proverb. Harvard University Press P-6-13.
6. O‘zbek xalq maqollari (Tuzuvchi: M. Afzalov). – Toshkent: O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1959 b-103.
7. Mukaramxodjayeva T.Y “Advantages and disadvantages of learning foreign language at an early age” O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 20-SON, 2023